

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI MUSIQA MADANIYATI FANI O‘QITUVCHILARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MALAKA SINOVIDA
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MUSIQA MADANIYATI FANIDAN MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya Musiqa madaniyati o‘quv fanidan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezoni va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning musiqa madaniyati fani bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan jami 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i

taqdim etiladi va umumiy test topshirig'ini bajarish uchun jami 80 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan *yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*, *moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)* foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
MUSIQA MADANIYATI		35 ta
1. Musiqa savodi (1–20-savollar)		
1.1. Musiqa savodi	– musiqa savodini bilish; – musiqa nazariyasini bilish; – tovushlarning nomlari, oktavalar va ularning harfiy tizimdagi belgilarini farqlay olish; – tovushlarning oktavalarini farqlay olish; – tovushlarning harfiy tizimdagi belgilarini farqlay olish; – alteratsiya belgilarining harfiy tizimdagi ifodalanishini aniqlay olish; – tovushlar engarmonizmini bilish; – tovush cho'zimi uzaytirish belgilarini aniqlay olish; – pauza belgilarini bilish; – tovush cho'zidlari va ularning yozilishini bilish; – musiqa kalitlarini aniqlay olish; – nota yozuvini qisqartirish va soddalashtirish belgilarini bilish; – musiqa templarini farqlay olish; – dinamik belgilarni bilish; – ijro xarakterini belgilovchi terminlarni bilish va aniqlay olish; – intervallarni farqlay olish; – lad pog'onalarining nomlarini bilish; – parallel tonalliklarni aniqlay olish; – musiqaning ifoda vositalarini to'g'ri qo'llay olish; – musiqiy asarlarni tahlil qila olish.	20 ta
2. Cholg'u asboblari (21–24-savollar)		
2.1. Musiqa cholg'ulari	– musiqa cholg'ularining nomlarini bilish; – cholg'ularining guruhlarini aniqlay olish; – cholg'ularining registrini aniqlay olish; – cholg'ularining guruhlarini farqlay olish.	4 ta

3. Musiqiy janrlar (25–26-savollar)		
3.1. Musiqiy janrlar	– <i>musiqiy janrlarning turlarini bilish va farqlay olish;</i> – <i>musiqiy janrlarning turlarini farqlash.</i>	2 ta
4. Raqs san’ati (27–29-savollar)		
4.1. Raqs san’ati	– <i>o‘zbek xalq raqslarini farqlay olish;</i> – <i>xalq raqslarini aniqlash;</i> – <i>zamonaviy raqslarni farqlay olish.</i>	3 ta
5. Maqom san’ati (30–33-savollar)		
5.1. Maqom san’ati	– <i>maqom san’atini bilish;</i> – <i>maqom bo‘limlarini farqlay olish;</i> – <i>maqom kuylarini tahlil qilish;</i> – <i>maqom kuylarini aniqlay olish.</i>	4 ta
6. Dirijorlik (34-savol)		
6.1. Dirijorlik	– <i>dirijorlik sxemalarini bilish;</i> – <i>dirijorlik texnikasi va taktik usullarini tushunish;</i> – <i>amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llay olish;</i> – <i>o‘lchovlarni aniqlay olish.</i>	1 ta
7. Xor san’ati (35-savol)		
7.1. Xor san’ati	– <i>xordagi ovoz diapazonlarini farqlay olish;</i> – <i>xor ovozlarni tahlil qilish.</i>	1 ta

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

2-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5 ta
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o‘quv jarayonini rejalashtirish, ta’lim samaradorligini ta’minlash, o‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish va ta’minlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish, hamkasblar va ta’lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo‘llay olish.	5
2. PEDAGOGIK MAHORAT (41 – 50-savollar)		10 ta

2.1. Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslari va yondashuvlarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlarini bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish;	7
2.2. Musiqa o'qitish metodikasi	– fan mazmun sohasini o'qitish yondashuvlari, metodikasi va texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o'qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o'qitish bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	3
Jami		15 ta

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	8
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35

3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7
----------	------------------------	--	---

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy ballini (raw score) hisoblash uchun har bir to'g'ri javob uchun 1 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball beriladi. Umumiy 40 ballni tashkil qiladi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15% vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Y.V.Uvarova, N.P.Cheryomuxina Musiqa savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. 2025. Novda.
2. Musiqa savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. (N. P. Cheryomuxina). 2023. Novza
3. Musiqa savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. (N. P. Cheryomuxina). 2023. Novza
4. Musiqa savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. (N. P. Cheryomuxina, A. M. Abdullayev. 2023. Novza
5. Musiqa. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. U. U. Mirzaxmedov, N. P. Cheryomuxina, A. M. Abdullayev. 2024. Novza
6. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 6-nashri S. Begmatov,

“G‘afur G‘ulom ijodiy uyi” 2017.

7. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to‘g‘ri nashri, Oqilxon Ibrohimov, Jamil Sadirov, “G‘afur G‘ulom” 2017.

8. “O‘zbek musiqa tarixi”. S. Begmatov Toshkent-2018 “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018

9. “Musiqa tarixi”. O. A. Ibrohimov, G‘. M. Xudoyev Toshkent - 2018 “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018-yil

10. “Musiqaning elementar nazariyasi” Qadamboy Rahimov “Musiqa” nashriyoti Toshkent 2007

11. “O‘zbek an‘anaviy cholg‘ulari” Begmatov S Toshkent “Yangi nashr” 2008-yil

12. “Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti” G.Mansurova Toshkent “Yangi nashr” 2008

13. “O‘zbek an‘anaviy cholg‘u ijrochiligi” Anvar Abdullayev uslubiy qo‘llanma Qo‘qon-2024

14. “Maqom asoslari” Oqilxon Ibrohimov Toshkent “Yuron-Iqbol”- 2018

15. “Xor dirijyorligi” R.Tursunov Toshkent 2006

VIII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo‘yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.

2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.

3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti.

5. Sharipova G., Xodjayeva Z. Musiqa o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent “Nif msh”, 2020

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.